

YOSH AVLOD TALIM- TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNI O‘RNI

Hamroqulova Nigora Jasurovna

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: *Talim -tarbiya jarayonida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni ahamiyati, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda qadriyatlarimizni ahamiyati, yosh avlod ongida vatanparvarlik, milliy o'zligini anglash, milliy qadriyatlarni shakllantirishni samarali usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar , talim-tarbiya , urf-odatlar, barkamol avlod, pedagogik qarashlar.*

Har bir xalqning taraqqiyoti, uning kelajak istiqboli avvalo yosh avlodning qanday ruhda tarbiyalanishiga bog'liq. Yoshlar jamiyatning eng faol va harakatchan qatlami bo'lib, ular mamlakatning kelajak rivojini belgilovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni ma'naviy yetuk, bilimli va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlar alohida ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy merosi va madaniy an'analarini o'zida mujassam etgan muhim omildir. Ular orqali yoshlar o'z xalqining tarixini, madaniyatini va ma'naviy qadriyatlarini angelaydi hamda ularga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari, axloqiy me'yorlari hamda ma'naviy qarashlarini ifodalovchi ijtimoiy va madaniy boyliklar majmuasidir. Ular jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lib, insonlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Milliy qadriyatlarga xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy bayramlar, an'anaviy tarbiya usullari, milliy san'at va adabiyot kiradi. Bu qadriyatlar yoshlarning milliy o'zligini anglashiga, tarixiy ildizlarini his qilishiga hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar insonlarda hurmat, mehr-oqibat, bag'rikenglik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish va ularni yoshlar ongiga singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak har bir xalq avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan urf -odat va qadriyatlari bilan yuksalgan

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.

Biz yosh avlodni tarbiyalar ekanmiz ikki mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi - kuchli iqtisodiyot bo'lsa ikkinchisi-ajdodlarimizni boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatdir.

20-Mart, 2026-yil

Milliy qadriyatlar- har bir millatning , xalqning o‘ziga xos bo‘lgan xalqni milliy urf-odati, an'analarini o‘zida aks ettiruvchi tushuncha.

Insoniyat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan erkinlik , tinchlik, adolat, haqiqat, yaxshilik, ezgulik, ma'naviy boylik go‘zallik bularning barchasi qadriyatlardir.

Go‘zallik deganda biz faqatgina insonni tashqi chiroyi emas, balki ichki dunyosi ,ma'naviy dunyoqarashini , ruhiy dunyosini tushunishimiz kerak.

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda avvalambor o‘zligini anglash tarixini bilishdan boshlanadi .

Har bir inson o‘z shajarasini bilishi darkor chunki u o‘z avlodiga munosib avlodligini his qilishi kerak, va ularga mos avlod bo‘lishiga harakat qilishi kerak . Yosh avlod ongiga milliy qadriyatlar tushunchasini shakllantirish zarur.

Buning uchun avvalambor har bir oilada milliy qadriyatlar bo‘lishi, masalan aytaylik 21-mart Navro‘z ayyomini nishonlashimiz , sumalak milliy taomini pishirishimiz, milliy qadriyatimiz hisoblangan milliy o‘yinlar o‘ynalishi, milliy liboslarimizni kiyishimiz milliy urf odatlarimizga ham yorqin misol .

Yoshlarni vatanparvarlik milliy iftixor ruhida tarbiyalash zarur deb tariflaydi

O‘zbekistoz Respublikasi prezidenti Sh.M.mirziyoyev xususan "ma'naviy -marifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar" to‘g‘risida 2019 yil 3-mayda qarori qabul qilindi.

Bu asosda " Ma'naviyat fidoyisi"ko‘krak nishoni.

"Manaviyat festivali.

"Yilning eng faol manaviyat targ‘ibotchisi tanlovi.

"Biz buyuk allomalar farzandlarimiz "mavzusida uchrashuvlar

" Marifatli yoshlar"

"Millat faxri"mavzusida konfrensiyalar joriy etildi.

Yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirishni samarali usullari

Avvalambor oila muhitida qadriyatlarni shakllantirish milliy bayram urf-odat, kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik kabi qadriyatlarni amalda ko‘rsatish.

Maktablarda milliy liboslar kuni

Buyuk ajdodlar merosini targ‘ib qilish.

Xulosa. Bugungi kunda yosh avlodga talim -tarbiya va milliy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy texnologiya va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish eng samarali yo‘l hisoblanadi .

Yoshlarning 80%dan ortig‘i maljmotlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardan oladi,shuning uchun milliy qadriyatlar haqida video, blog, onlayn loyihalar samarali ta'sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev mamlakatimizda talim -tarbiya tizmini takomillashtirish ilm-fan sohasi rivoji nutqidan .
2. I.A.Karimov .Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q 1998